










Nogironligi bor insonlarga uy-joy kommunal to‘lovlari uchun pullik kompensatsiya to‘lovlari





Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen nogironligi bor insonlarga **uy-joy kommunal to‘lovlari uchun ajratiladigan kompensatsiya puli** haqida bilib olasan.
	**Kommunal to‘lovlar –** bu sen uyingdagi: • chiroq • gaz • suv va boshqalardan foydalanganing uchun davlatga to‘laydigan pul.
	**Kommunal to‘lovlari uchun ajratiladigan kompensatsiya puli** – bu davlat sening kommunal to‘lovlaringni bir qismini to‘lab berish uchun ajratadigan pul.


	**Kompensatsiya puli to‘lab beriladigan insonlar:** ● 1941 — 1945-yillarda urushda qatnashgan insonlar ● 1941 — 1945-yillarda urushda nogiron bo‘lgan insonlar ● parvarishga muhtoj yolg‘iz qariyalar ● ko‘rish bo‘yicha birinchi guruh nogironligi bor insonlar ● ikkinchi jahon urushida qatnashganlar ● nogironligi bor insonlar.
	2022-yil 1-martdan boshlab kompensatsiya to‘lovini olish huquqiga ega bo‘lgan hamma insonlarga ● pensiya olsa ham ● pensiya olmasa ham ● ishlasa ham ● ishlamasa ham **kompensatsiya puli to‘lab beriladi.**
	2023-yil noyabr holatiga ko‘ra, pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori 1 oy uchun — 372 000 (uch yuz yetmish ikki ming) so‘m.

	• Parvarishga muhtoj yolg‘iz qariyalar • **ko‘rish bo‘yicha birinchi guruh nogironligi bor insonlarning oylik** kompensatsiya puli pensiya bazaviy miqdorining 45 foiziga teng.
	Pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 45 foizi: • 167 400 (bir yuz oltmish yetti ming to‘rt yuz) so‘m.
	**Urush nogironlari va urush qatnashchilari**ning oylik kompensatsiya puli pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 50 foiziga teng.
	Pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 50 foizi: • 186 000 (bir yuz sakson olti ming) so‘m.
	**Urushning mehnat fronti qatnashchilarining** kompensatsiya puli pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 25 foiziga teng.

	Pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 25 foizi: ● 93 000 (to‘qson uch ming) so‘m.
	**100 yoshga kirgan va undan yoshi katta pensiya oluvchi qariyalarga** har oy pensiyani bazaviy miqdorining 100 foizi (372 000 uch yuz yetmish ikki ming so‘m) miqdorida qo‘shimcha pul to‘lanadi.
	Sen kompensatsiya pulini olish uchun: ● nogironlik hujjating ● pensiya guvohnomang ● va ariza bilan birga Pensiya jamg‘armasiga murojaat qilishing kerak (Ariza namunasi ilova qilindi).
	Ariza berishda **ko‘zi ojiz** birinchi guruh nogironligi bor insondan nogironlik hujjati so‘ralmaydi.

	Ko‘zi ojiz birinchi guruh nogironligi bor insonning barcha ma’lumotlari **“Elektron hukumat”** internet tizimidan olinadi.
	Kompensatsiya pulini olishi mumkin bo‘lgan insonlarga **ariza topshirgan oydan keyingi oyda** kompensatsiya puli **ajratiladi.**
	**Masalan:** ● Sen 5-iyul kuni kompensatsiya puli uchun pensiya jamg‘armasiga ariza berding. ● 1-avgustdan senga kompensatsiya puli ajratiladi.
	Soliq kodeksining 369-moddasiga ko‘ra: ● nogironligi bor inson uy-joy-kommunal to‘lovlari uchun ajratilgan kompensatsiya pulidan daromad solig‘i to‘lamaydi.
	Daromad solig‘i – bu sen davlatga o‘z pulingdan soliq to‘lashing.

	Sen biror joyda ishchi bo‘lib ishlasang, senga kompensatsiya pulini har oy ishxonang to‘laydi.
	• Pensionerlarga • nafaqa oladigan nogironligi bor bolalarga • ishlay olmaydigan qariyalarga kompensatsiya pulini **pensiya (nafaqa) olish joyi to‘laydi.**
	Kompensatsiya pulining bir necha turini olish huquqiga ega insonlarga o‘z tanloviga ko‘ra, **eng ko‘p miqdordagi bitta kompensatsiya puli to‘lanadi**.
	**Masalan:** • Sen ham ko‘rish bo‘yicha birinchi guruh nogironisan, ham urush mehnat fronti qatnashchisisan.
	• Ko‘zi ojiz insonning kompensatsiya puli 167 400 (bir yuz oltmish yetti ming to‘rt yuz) so‘m • Urush mehnat fronti qatnashchisining kompensatsiya puli 93 000 (to‘qson uch ming) so‘m.

	Sen o‘zing tanlab, ko‘proq bo‘lgan kompensatsiya pulini olishing mumkin.
	**Kompensatsiya puli berishni to‘xtatadigan holatlar:** • Fuqaro vafot etganda • Doimiy yashash uchun boshqa davlatga ketganda.